



## Linguistic characteristics of terms related to human mental ability in proverbs and sayings in English and Uzbek languages

Kamola ABDURASHIDOVA<sup>1</sup>

Secondary school № 41

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

#### Keywords:

term,  
mental abilities,  
lingvocultural aspects,  
proverbs,  
sayings.

### ABSTRACT

In today's period of globalization, diverse relations between countries are developing. As a result, this has an impact on languages. Words are borrowed from other languages and adapted to the culture of the host country. However, these borrowed words still retain certain lingua-cultural similarities and differences. For this reason, in this article, we have attempted to analyze concepts related to human mental abilities from a linguistic and cultural perspective, using proverbs and sayings.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp269-273>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ingliz va o'zbek tillarida inson aqliy qobiliyatiga oid atamalarning maqol va matallarda lingvomadaniy xususiyatlari

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

atama,  
aqliy qobiliyat,  
lingvomadiy xususiyatlar,  
maqollar,  
matallar.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatlar o'rtasida har tomonlama aloqalar rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida tillarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Boshqa tillardan yangi so'zlar o'zlashtirilib, ayni davlatning madaniyatiga moslashtirilmogda. Biroq, so'zlar o'rtasida lingvomadaniy o'xshashliklar va farqlar hali ham mavjud. Shu boisdan ham biz ushbu maqolada aynan ingliz va o'zbek tillarida inson qobiliyatiga oid atamalarni lingvomadiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik va bu maqsadda maqol va matallatdan foydalandik.

<sup>1</sup> English teacher of secondary school № 41, Andijan region. E-mail: kamolashukhratovna19@gmail.com

# Лингвистическая характеристика терминов, связанных с умственными способностями человека, в пословицах и поговорках на английском и узбекском языках

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

термин,  
умственные способности,  
лингвокультурологические  
особенности,  
пословицы,  
поговорки.

В современный период глобализации развиваются разносторонние отношения между странами, что, в свою очередь, оказывает влияние на языки. Слова заимствуются из других языков и адаптируются к культуре страны. Однако эти заимствованные слова сохраняют как сходства, так и различия с точки зрения лингвокультурологии. В связи с этим в данной статье мы попытались проанализировать термины, связанные с умственными способностями человека, с лингвокультурологической точки зрения, используя пословицы и поговорки.

## KIRISH

Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillararo, davrlararo ularning yangilari yaratilib turgan, eskilarining – jonli muomalada, tilda mavjudlarining ma'no doirasi kengayib yoki torayib borgan. Hatto ularning muayyan qismi unutilib ketgan. Chunki o'zbek xalqining bunday ulkan folklor merosi folkloristik nuqtayi nazardan keyingi asrlargacha deyarli to'planmay va o'rganilmay kelgan. Bundan xalq maqollari o'tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e'tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqarmasligimiz kerak [1].

Qadim zamonlardan buyon har bir xalq so'z va barqaror so'z birikmalari bilan bir qatorda nutqdan foydalanish jarayonida barqaror iboralarni qo'llagan va ayonki, ulardan birini paremlar tashkil qiladi. Paremlar deganda, avvalambor, ikkinchi darajali til belgilari – vaziyat yoki voqelik o'rtasidagi munosabatlar belgisi bo'lgan yopiq barqaror iboralar (maqollar va matallar) tushuniladi. Ular semantik imkoniyati va turli nutq vaziyatlari hamda turli nutq maqsadlarida foydalanish qobiliyati bilan til tashuvchilarini o'ziga jalb qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu birliklar to'laqonli muloqot jarayonini ta'minlovchi semiotik kichik tizimlardan birini tashkil etadi. Paremlar xalq tajribasi va xalqning voqealar, odamlar va ularning harakatlariga baho berishi mujassam bo'lgan birliklar hisoblanadi. Parema fondining tahliliga murojaat qilish xalq dunyosi, xalq qarashlari, mentaliteti, aksiologik tizimi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish imkoniyatini beradi.

Maqollar nafaqat folklorning unsuri sifatida, balki mazmun va shakl jihatidan alohida tarzda tashkil etilgan lisoniy birliklar sifatida ham o'rganilishi lozim. Paremlar hayotiy vaziyatlar yoki voqeliklar o'rtasidagi munosabatlar belgisi bo'lib xizmat qiluvchi yopiq barqaror iboralar sifatida "o'zida gap va erkin birikmalar bilan frazeologik birliklarning xususiyatlari"ni birlashtiradi. Paremlar folklor aforizmlari sifatida folklor bo'lmagan aforizmlar bilan birga frazeologik fondga kiritilgan lisoniy iboralarning butun bir qatlamini tashkil etadi (keng ma'noda), degan fikr yo'q emas. Paremlarni o'rganishga tor yondashish tarafdorlarining nazarida, bu birliklarni frazeologik birliklarga bog'lab bo'lmaydi. Masalan, paremlarni matn tilshunosligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak, rus olimi O.V.Antonova ularni matn tushunchasi bilan bog'laydi, chunki eng oddiy paremlar yozma ravishda kichik matn bo'lgan to'liq iboralardir. Uning fikricha, paremlarning bu xususiyati frazeologizmlardan farq bo'lib xizmat qiladi, chunki frazeologik birliklar "kontekstdan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, ular har doim muayyan matnning unsuri hisoblanadi". "Parema" atamasi tilning maxsus birliklari, madaniyat belgilari bilan ifodalanadiki, ular madaniyatlararo muloqot unsurlarini ham tashkil etadi. Ko'pgina paremik birliklar turli millat vakillari uchun tushunarli, zero ular tipik hayotiy vaziyatlarga, xalqning mantiqiy tafakkurini aks ettiruvchi uyushmalarga asoslanadi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Tariximizda hatto maqolga maxsus, agar ta'bir joiz bo'lsa, folkloristik nuqtayi nazardan, garchi epizodik xarakterda bo'lsa-da, munosabatda bo'lingan hollarga ham duch kelamiz. XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyati va uning "Devoni lug'otit turk" asari bunga yorqin misol bo'la oladi. "Devon"da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda [3].

Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiiy o'zining "Zarbulmasal" asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.

O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Masalan, venger olimi H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya-lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan. Shundan keyin birin-ketin N.Ostroumov (1895), B.Rahmonov (1924), Sh.Jo'rayev (1926), H.Zarifov (1939, 1947), B.Karimov (1939), Sh.Rizayev, O'.Azimov, O'.Xolmatov (1941), M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov (1958, 1960, 1965,

1978), R. Jumanioyov (1964, 1967, 1970), E. Siddiqov (1976, 1986), B. Sarimsoqov, I. Haqqulov, A. Musoqulov, R. Zarifov (1978), B. Sarimsoqov, A. Musoqulov, M. Madrahimova (1981, 1984), Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov (1987, 1990, 2001), T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, A. Musoqulov (1989) kabi folklorshunoslar, fan va madaniyat xodimlari tomonidan tuzilgan turli xarakterdagi va turli hajmdagi maqollar to'plamlari nashr etildi. M. Abdurahimov, X. Abdurahmonov, M. Sodiqova, H. Karomatov, K. Karomatova, H. Berdiyev, R. Rasulov kabi olimlarning tilshunoslik va tarjtmashunoslik yo'nalishidagi to'plamlari yuzaga keldi. Shuningdek, Y. Chernyavskiy, V. Ro'zimatov (1959), N. Gatsunayev (1983, 1988), A. Naumov (1985) kabi tarjimonlarning mehnati bilan o'zbek xalq maqollari rus tilida ham ayrim-ayrim to'plamlar sifatida bosilib chiqdi.

Turli davrlar, turli yillarda bunday to'plamlarning nashr etilishi xalq maqollarini to'plash, ularga muayyan bir tartib berish, ulardagi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu to'plamlardagi faktik materiallar, asosan, bir-birini takrorlaydi. Shunga qaramay, ular materialning hajmi, tanlanishi, mavzularga ajratilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligidagi tayyorlangan to'plamning keyingi nashriga 2500 dan ortiq maqol 34 mavzuga bo'lib berilgan bo'lsa, R. Jumanioyov to'plamining so'nggi nashrida 1047 maqol 22 mavzu ostida jamlangan. Yoki B. Rahmonov to'plamiga 564, Sh. Jo'rayev to'plamiga 711 maqol kiritilgan, xolos.

O'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987–1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi. To'plam folklorshunoslikda to'plangan xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi boy tajriba asosida tuzildi hamda hozirgacha mavjud materiallarni nisbatan to'laroq qamrab olishga harakat qilindi. To'plam keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallanganligi uchun ham bu yerda maqollarning ilmiy-badiiy tahliliga keng o'rin berishga zarurat yo'q. Ammo to'plamdan foydalanishni osonlashtirish maqsadida maqolga xos bo'lgan ayrim jihatlarni alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xiligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak [6].

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Aynan ushbu ilmiy ishda inson aqliy qobiliyatiga oid atamalarning maqollarda verballashuviga etibor qaratilsa, quyidagicha ko'rinishlarni misol keltirish mumkin:

*Avval o'yla, keyin so'yla*

*First think, then speak*

Ingliz tilida bu maqolga ekvivalent sifatida yuqoridagi shakl to'g'ri keladi. Bu maqolda "o'ylamoq" aqliy faoliyat fe'li ishtirok etgan, ya'ni bunda mazmun insonni ko'p marta har bir tomonini o'ylab, o'rganib chiqib ish boshlashi kerakligi nazarda tutiladi.

Lekin mana bu maqolda bu fe'l ishtirokida boshqa bir ma'no kuzatiladi:

*O'ychi o'ylaguncha, tavakkalchi ishini bitiradi* [2].

Uzoq muddat noaniqlikka, beqarorlikka bog'langan holda qolsa, inson og'zidagi oshni ham oldirib qo'yishi mumkin. Shu boisdan ayrim vaziyatlarda u tez qaror qabul qilishi kerakligi anglashiladi.

*Sog' tanda, sog'lom aql.*

*Healthy mind in a healthy body.*

Bu maqolda aqlning qay holatda bo'lishini tananing sog'lomligi bilan bog'lanadi. Insonning o'zi sog'lom bo'lsa, uning aqli ham sog'lom fikrlaydi.

So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ham badiiyat hodisalaridir. Ularda bir so'zning o'nlab ma'no qirralari, badiiy tasvir vositalari, poetik ko'chimlarining barcha namunalarini uchratish mumkin. Masalan, qaysi maqol tarkibida kelishiga qarab birgina yomon so'zi yomonlikdan tashqari xudbinlik, tekinxo'riik, egrilik, insofsizlik, dushmanlik, qo'rqqoqlik, nodonlik, ilmsizhk, odobsizlik, baxillik, manmanlik, noshudlik, yolg'onchilik, sabrsizlik, bevafoqlik, ochko'zlik, nomussizlik, isrofgarchilik va hokazo ma'nolarni ifodalaydi. Bu – maqollarda so'zlarning ma'no imkoniyatlari naqadar kengligi ko'rsatiladi [4].

Maqollar ketma-ket kelganda, biri ikkinchisini inkor etgandek, bir-biriga ziddek tuyulishi mumkin. Aslida esa qo'llanish vaziyatga qarab turli-tuman ma'no-mazmunni ifodalaganligini unutmaslik kerak. Quyidagi maqollarga e'tibor qiling:

*Ones word is one's bond.*

*So'z aytganda o'ylab ayt,*

*Oqibatini bilib ayt.*

*Yoki:*

*Young men think old men fools, and old men know young men to be so.*

*Qarilikni donolik bezar,*

*Yoshlikni – kamtarlik [7].*

#### **XULOSA**

Har ikki maqollarda tarkib bir birini davomi, natijasi sifatida talqin qilinadi. Maqolning qismlari qiyoslash usulida ifodalanmoqda. Keltirilgan maqollar bir-biriga zid emas. Yoki biri ikkinchisining buzilgan varianti ham emas. Ular o'z ma'nosiga ega mustaqil maqollardir. Shu jumladan, bu maqollarning ingliz va o'zbek tillaridagi o'zaro ekvivalentlari haqida gapirib o'tilganda, ingliz tilida inson aqliy qobiliyatiga oid bolgan "think"- o'ylamoq so'zi, o'zbek tilidagi maqolda ishtirok etmaydi, ammo o'sha ma'no nazarda tutiladi. Bu esa o'z navbatida ingliz va o'zbek tillaridagi aqliy qobiliyatni ifodalovchi leksemalarning lingvomadaniy farqlarini o'zida namoyon qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Begmatov E. "Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlamlari". – T., 1985.
2. Karomatova K. M., Karamatov X. S. Proverbs. Maqollar.Poslovitsi. – Toshkent: Mehnat, 2000.
3. Mahmud Qoshg'ariy, "Devon-u lug'otit turk". Uch tomlik. I tom. –Toshkent
4. O'zSSR. Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 1960.
5. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari". – Toshkent: Sharq, 2012.
6. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. [www.maqollar.uz](http://www.maqollar.uz)